
"O'zbekiston" mahallasidagi sug'orish tizimidagi muammo ham bartaraf etilmoqda

Ayni kunlarda Farg'ona shahridagi mahalla fuqarolar yig'inlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi «2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-408-sonli qaroriga asosan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, "O'zbekiston" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi Abdulla Qodiriy ko'chasida joylashgan 15 ta ko'p qavatli uylar atrofidagi ekin yer maydonlariga 1500 metr masofada sug'orish tarmoqlari tortilmoqda.

Hozirda qazish va tarmoq tortish ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur ishlar uchun qaror asosida 200 mln. so'm mablag' ajratilgan.

2023-03-27 17:04:39